



TASDIQLAYMAN

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha prorektori:

S. Toshmatov

2022-yil " " "

Ish joyida mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma

Hodimlar Ish boshlashidan oldin quyidagi xavfsizlik talablariga e'tibor berishi lozim:

- sanitar-gigienik, yong'in xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga hamda mazkur yo'riqnoma talablariga rioya qilish;
- mazkur yo'riqnoma nusxasi ish joyida bo'lishini ta'minlash;
- ish joyi (xona) yetarli darajada yoritilgan bo'lishi;
- xonadagi mikroiklim sharoitlari talab darajasida bo'lishi;
- xonada birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qutisi va o't o'chirish vositasi mavjudligi;
- xonadagi elektr tizimi va barcha bog'lovchi kabellar soz holatda bo'lishi;
- aloqa qurilmalari va elektr asboblarni kontur orqali yerga ulangan bo'lishi;
- sozlash va o'lchash ishlarini o'tkazishda tok tashuvchi qismlarni ushlab olish ehtimoli mavjud bo'lgan ish joyida dielektrik gilamcha to'shalgan bo'lishi;
- barcha aloqa qurilmalar, maishiy texnikalar, elektr asboblari, shaxsiy kompyuterlar va uskunalarni elektr manbaiga to'g'ri ulanganligini tekshirish;
- evakuatsiya chiqish yo'llari va eshiklarni mebellar, uskunalarni xamda boshqa turdagi narsalar bilan to'sib qo'ymaslikni doimo nazoratga olish;
- aniqlangan va mavjud kamchiliklar yuzasidan o'zining bevosita rahbariga xabar berish.

Ish vaqtida quyidagi xavfsizlik talablariga e'tibor berish lozim:

- sanitar-gigienik, yong'in xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga xamda mazkur yo'riqnoma talablarini bajarish;
- normativ xujjatlarda keltirilgan xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilgan holda o'lchash va sozlash ishlarini amalga oshirish;
- inson xayotiga xavf tugilgan vaziyat bartaraf etilmaguncha ishni to'xtatish;
- elektr manbaiga ulangan holatda aloqa qurilmalarni, uskunalarni, elektr asboblarni, maishiy texnikalarni va shaxsiy kompyuterlarni ustiga og'ir narsalar, suvi bor idishlarni qo'ymaslik hamda suv to'kilib ketmaslikni ta'minlash;
- monitor ekrani bilan ko'z orasidagi masofa 60-70 sm bo'lgan holatda o'tirish;
- himoya xususiyati yo'qolgan yoki shikastlangan elektr simlardan va kabellardan foydalanmaslik;

-shaxsiy kompyuterlarni jonlashtirish bo'yicha oraliq masofa 1,5 metr bo'lishni ta'minlash;

-xodim qo'li ho'l holatda elektr manbaiga ulangan shaxsiy kompyuterlarga, elektr asboblarga, uskunalariga, aloqa qurilmalariga (televizorlarga, mikroto'likli pechlarga, elektr choynaklarga, maishiy texnikalarga) tegmaslik;

-har bir xodim o'z ish joyidagi yongin xavfsizligini doimo taminlab borishi;

-og'irligi 13 kilogrammdan ortiq bo'lgan jihozlarni va boshqa narsalarni bir kishi ko'tarmasligi;

-dam olish va ish rejimiga rioya qilish.

Ish tugagandan so'ng quyidagilariga e'tibor berish lozim:

-o'z ish joyini tartibga keltirish;

-xonadagi elektr tarmog'iga ulangan aloqa qurilmalarini, maishiy texnikalarni, shaxsiy kompyuterlarni, uskunalarni va elektr tizimlarni o'chirish;

-xonadagi isitish tizimlarini ko'zdan kechirish;

-deraza oynalarini va eshikni yopish.

Avariya holatlarida xavfsizlik talablari:

-har bir xodim mazkur yo'riqnoma va mehnat muhofazasi qoidalarining talablari buzilishini yoki uskunada insonlar hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan nosozlikni aniqlagan hollarda o'zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berishi zarur. Uskunadagi nosozlik xodimlar hayotiga tahdid soladigan xavf-xatar yuzaga kelgan hollarda avval uskunani o'chirish chorasini ko'rish yoki texnik xavfsizlik qoidalari talablariga rioya qilingan holda nosozlikni bartaraf etish;

-tutun chiqqanda, me'yordan tashqari shovqin yoki qizib ketish paydo bo'lganda darhol ishni to'xtatish, elektr rozetkadan vilkani olish va xizmat ko'rsatuvchi xodimni chaqirish;

-agarda ish vaqtida baxtsiz hodisa ro'y bersa, jarohat olgan insonga tezda birinchi yordam ko'rsatish, hodisa to'g'risida o'zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berish ish joyidagi vaziyatni va jihozlar holatini hodisa yuz bergan daqiqada qanday bo'lsa, shundayligicha (atrofdagi insonlar hayoti, salomatligiga tahlika solmayotgan va halokatga olib kelmasa) saqlab qolish.

Elektr toki urganda darhol quyidagi tartibda harakat qilish kerak:

-elektr toki urganda jarohatlanganni imkoni boricha tezroq elektr toki ta'siridan halos qilish (ya'ni rezina qo'lqopdan foydalangan holda kiyimini quruq bo'lgan joyidan tortish yoki yog'och taxta, tok o'tkazmaydigan narsa bilan ajratib olish), agar balandlikda bo'lsa, uning pastga qulab ketmaslik chorasini ko'rish kerak. Uskunani elektr tokidan o'chirish moslamalari yordamida uzib qo'yish, ta'minot simini dastasi himoyalangan asbob yordamida chopib tashlash lozim;

-jarohatlangan shaxsni iloji boricha joyida yoki xavf tahdid solayotgan bo'lsa, unda xavfsiz joyga ehtiyot qilib olib, unga zudlik bilan birinchi yordam ko'rsatish va 103 ga qo'ng'iroq qilib tez tibbiy yordamni chaqirish;

-jarohatlangan shaxsni pulsini aniqlab, uni holatini to'g'ri baholash;

Agar jarohatlangan shaxs hushidan ketgan bo'lsa, unga nashatir spirt hidlatgandan so'ng hush holatda bo'lsa, vrach kelgunga qadar tinch holatni saqlash, kiyim tugmalarini yechib toza havo berish va quruq kiyimga yoki boshqa materialga yotqizish.

Agar jarohatlangan shaxsda puls, nafas olish va yurak urish to'xtagan bo'lsa, vrach kelgunga qadar, bir vaqtning o'zida doka yoki bint bilan (og'izdan og'izga) yoki (og'izdan burunga) 1 daqiqada 10-12 marta sun'iy nafas berilishi hamda bir qo'li to'g'ri holatda ko'kragi ustiga ikkinchi qo'l bilan ko'krakning uchinchi pastki qismini 3-4 sm. gacha, to'liq (semiz) odamlarga esa 5-6 sm, gacha bosib sekundiga bir martadan yurakni massaj qilib turilishi lozim (yosh bolalarga bir qo'l bilan sekundiga ikki martadan amalga oshiriladi). Sun'iy nafas berganda o'pkaga havo borayotganligini nazorat qilinishi, ya'ni ko'krak qismi kengayishi bo'yicha aniqlanadi. Agar sun'iy nafas berganda o'pkaga havo bormasa pastki jag' qismini oldinga surish yoki yotgan holatda orqa bo'yin qismini tepaga ko'tarish lozim.

Agar jarohatlangan shaxsga malakali ikki odam birinchi yordam ko'rsatayotgan bo'lsa, unda bittasi sun'iy nafas beradi, ikkinchisi esa yurakni massaj qilishi lozim. Bunday paytda har ko'krakning uchinchi pastki qismi 5 marta bosilgandan so'ng (ya'ni yurakni massaj qilinayotgan vaqtida) bir marta sun'iy nafas berish tartibi bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar jarohatlangan shaxsga malakali 1 ta odam birinchi yordam ko'rsatayotgan bo'lsa, unda navbatma-navbat ikki marta sun'iy nafas berilib so'ng ko'krakning uchinchi pastki qismi 15 marta bosish (ya'ni yurakni massaj qilinayotgan vaqtida) tartibi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu jarohatlangan shaxsga sun'iy nafas berilishi va yurak massaji bo'yicha qilingan harakatlar vrach kelgunga qadar yoki jarohatlangan shaxsda puls paydo bo'lguncha davom ettirilishi lozim.

Jarohatlanish (qon ketish) paytida quyidagi tartibda harakat qilish kerak:

-jarohatlangan shaxsni iloji boricha joyida yoki xavf tahdid solayotgan bo'lsa, unda xavfsiz joyga ehtiyot qilib olib unga zudlik bilan birinchi yordam ko'rsatish va 103 ga qo'ng'iroq qilib tez tibbiy yordamni chaqirish;

-zudlik bilan qon ketishini to'xtatish;

-jarohatlangan joyni tepa qismidan jgut yordamida (yoki bog'lasa bo'ladigan narsa bilan) yoki arteriya, vena tomirlarini qisib, qon ketishini to'xtatish;

-jgutni 1,5-2 soatgacha bo'lgan vaqtgacha qo'yish;

-jgutni qattiq qisib boylamaslik;

-jgut qo'yilgan joyiga, jgut qachon qo'yilganligi bo'yicha aniq vaqtini qog'ozga yozib qo'yish;

-qon to'xtagandan so'ng jarohatlangan joyni atroflarini spirt yoki odekolon bilan tozalab, yod surtilgandan keyin sterillangan bint bilan bog'lash;

-jarohatlangan joy ochiq ko'rinish holatida spirt, yod va boshqa narsalar tushishiga yo'l qo'ymaslik.

Xonada yong'in chiqqanda darhol quyidagi tartibda harakat qilish kerak:

-101 raqamini terib, o't o'chirish komandasiga telefon qilib, manzilni va nima yonayotganligi bo'yicha aniq xabar berish;

-elektr tarmog'ini o'chirish;

-yong'in signalizatsiya moslamasini ishga tushirish;

-xodimlarni evakuatsiya qilish sxemasi bo'yicha binodan chiqib ketishini ta'minlash;

-yong'in turiga qarab yong'inni o'chirish yoki qo'maklashish;

-aloqa qurilmalarida, maishiy texnikalarda, shaxsiy kompyuterlarda va boshqa elektr uskunalarda sodir bo'lgan yong'inni uglekislotali o't o'chirish vositasi bilan o'chirishda xavfsizlik masofa oralig'i 1 metrdan kam bo'lmagan holatda o'chirish;

-akkumulyator xonasidan chiqqan yong'inni o'chirishda uglekislotali o't o'chirish vositasi bilan o'chirish.

Quyidagilar taqiqlanadi:

-mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshirishdan o'tmagan shaxslarni ishga qo'yish;

-xona ichida yong'in jihatidan xavfli, zaharli va nafasni qaytaradigan (bo'g'adigan) moddalarni olib kirish, saqlash hamda foydalanish;

-xona ichida chekish va olov yoqish;

-maxsus issiqlik himoya qurilmalari bo'lmagan, issiqlikni o'tkazmaydigan maxsus material bilan himoyalangan, yong'inga olib keladigan xavfli uskunalardan foydalanish;

-ishlab turgan elektr asboblari, kompyuter, monitor hamda boshqa uskunalarni korpusini ochish;


-yong'inga olib keladigan nosoz elektr asboblardan va uskunalardan foydalanish;

-evakuatsiya, chiqish yo'llari va eshiklarni mebellar, uskunalari, boshqa turdagi narsalar bilan to'sib qo'yish;

-uskunalarni yerga ulamasdan ishlatish va himoya xususiyati yo'qolgan yoki shikastlangan elektr simlardan hamda kabellardan foydalanish;

-ishlab turgan elektr asboblarni, uskunalarni (televizorlarni, mikroto'lqinli pechlarni, elektr choynaklarni, maishiy texnikalarni) nazoratsiz qoldirish.

Xo'jalik bo'limi boshlig'i



A. Suyunov

Fuqaro va mehnat muhofazasi bo'limi boshlig'i



A. Savriddinov